

## VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR


2024- yilning yanvar-martida tashqi savdo aylanmasi 291,3 mln. AQSH dollari tashkil etdi, shundan 121,7 mln. AQSH dollarini eksport operatsiyalari, 169,6 mln. AQSH dollarini import operatsiyalari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini -187,8 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

### Yanvar-mart oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)

	<i>yanvar-mart</i>		<i>2023- yilning yanvar-martiga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2023- y.</i>	<i>2024- y.</i>	
Tashqi savdo aylanmasi	128,6	291,3	2,3 m.
shu jumladan:			
MDH davlatlari	37,7	37,1	98,5
boshqa davlatlar	90,9	254,2	2,8 m.
Eksport	85,8	121,7	141,9
shu jumladan:			
MDH davlatlari	23,4	27,9	119,0
boshqa davlatlar	62,4	93,8	150,5
Import	42,8	169,6	4,0 m.
shu jumladan:			
MDH davlatlari	14,3	9,2	64,8
boshqa davlatlar	28,5	160,3	5,6

## Yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




## Yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyati eksport-importi tarkibi

	<i>Eksport va import operatsiyalari hajmi va ulushi</i>				<i>2023- yil yanvar- martga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2023- yil</i>		<i>2024- yil</i>		
	<i>mln. AQSH doll.</i>	<i>jamidagi ulushi, %</i>	<i>mln. AQSH doll.</i>	<i>jamidagi ulushi, %</i>	
<b>Eksport tarkibi</b>	<b>85,8</b>	<b>100,0</b>	<b>121,7</b>	<b>100,0</b>	<b>141,9</b>
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9,5	11,1	11,8	9,7	124,7
<b>Ichimlik va tamaki</b>	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat hom-ashyo yoqilg'idan tashqari	9,0	10,5	5,6	4,6	61,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga uxshash materiallar	9,3	10,8	31,7	26,0	3,4 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,2	0,2	0,1	0,1	60,8
Sanoat tovarlari	53,0	61,8	65,1	53,5	123,0

*davomi*

Mashinalar va transport asbob uskunalari	0,8	0,9	0,7	0,6	91,6
Turli xil tayyor buyumlar	2,9	3,4	5,8	4,8	199,3
Boshqalar	-	-	-	-	-
Xizmatlar	1,1	1,3	4,2	0,8	72,5
<b>Import tarkibi</b>	<b>42,8</b>	<b>100,0</b>	<b>169,6</b>	<b>100,0</b>	<b>4,0 m.</b>
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,2	9,8	25,8	15,2	6,2 m.
Nooziq-ovqat hom-ashyo yoqilg'idan tashqari	2,4	5,6	1,6	0,9	67,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga uxshash materiallar	2,9	6,8	2,0	1,2	67,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	6,2	14,5	20,1	11,8	4,9 m.
Sanoat tovarlari	4,7	11,0	6,9	4,1	147,6
Mashinalar va transport asbob uskunalari	19,8	46,2	110,3	65,0	5,6 m.
Turli xil tayyor buyumlar	1,4	3,3	2,9	1,7	2,1 m.
Boshqalar	0,9	2,1	-	-	-
Xizmatlar	0,3	0,7	-	-	-


**Tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha tarkibi**  
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)





## QASHQADARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASINING YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-mart oylari, mln. AQSH dollari)



XXR

TSA – 96,8  
Eksport – 8,2  
Import – 88,6



Turkiya

TSA – 24,0  
Eksport – 20,7  
Import – 3,3



Rossiya  
Federatsiyasi

TSA – 25,4  
Eksport – 18,6  
Import – 6,8



BAA

TSA – 11,5  
Eksport – 11,1  
Import – 0,4



Qozog'iston

TSA – 3,9  
Eksport – 2,8  
Import – 1,1



Pokiston

TSA – 12,6  
Eksport – 7,6  
Import – 5,0



AQSH

TSA – 15,5  
Eksport – 14,3  
Import – 1,2



Tojikiston

TSA – 3,8  
Eksport – 3,6  
Import – 0,2



Polsha

TSA – 4,3  
Eksport – 4,2  
Import – 0,1



Germaniya

TSA – 13,4  
Eksport – 0,1  
Import – 13,3

Qashqadaryo viloyati, jahonning 63 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (33,2 %), Rossiya Federatsiyasida (8,7 %), Turkiyada (8,2 %), Ekvador (5,5%), AQSH da (5,3 %), Germaniya va Niderlandiyada (4,6 %), Pokistonda (4,3 %), Birlashgan Arab Amirligida (4,0 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga impor tovarlarning o'rini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.


TSA da so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSAda Avg‘oniston, Qozog‘iston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo‘shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va BAA davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## TO‘RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (yanvar-mart oylari, mln. AQSH dollari)




Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 16 ta yirik hamkor davlatlar orasidan 10 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Turkiya (103,2 mln. AQSH dollari), Rossiya Federatsiyasi (99,3 mln. AQSH dollari), BAA (44,6 mln. AQSH dollari), Pokiston (27,4 mln. AQSH dollari), AQSH (26,5 mln. AQSH dollari), Tojikiston (17,8 mln. AQSH dollari), Polsha (17,5 mln. AQSH dollari) va Italiya (15,2 mln. AQSH dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 8 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi,  
jamiga nisbatan foizda**




**Tovar va xizmatlarning import tarkibi,  
jamiga nisbatan foizda**



2024- yilning yanvar-mart oylarida jami 24,5 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari 10 277,7 ming AQSH dollariga eksport qilindi (2023- yilning mos davriga nisbatan 6,0 % ga) ko‘paydi.

Shuningdek, 0,7 ming tonna dukkakli sabzavotlar 2 594,9 ming AQSH dollariga eksport qilingan bo‘lib, eksport hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 76,0 % ga kamaygan.



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (38,7 %), Afg‘oniston (20,0 %) , Qozog‘iston (19,4 %) va Rossiya Federatsiyasi (18,2 %), davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘plangan tajriba bilan ham bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo‘jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda.